

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Suyuqlik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - “Sirdaryo IES” filialining tashlanmalar xovuzidagi suyuqlik chiqindilaridan hosil bo‘lgan cho‘kmalaning tarkibi o‘rganiladi; - o‘rganish va tahlillar asosida suyuqlik chiqindilarini qayta ishlash imkoniyatlarini o‘rganiladi; - suyuqlik chiqindilarini qayta ishlash orqali olinadigan maxsulot turlarini aniqlanadi; - suyuqlik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini yaratiladi; - yangi yaratilgan texnologiya bo‘yicha tajriba namunalari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ “Sirdaryo IES” filialida sanoat darajasida sinovlardan o‘tkaziladi ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.